

HUDUDLARNING MOLIYAVIY-INVESTITSION SALOHIYATI HAMDA SAMARADORLIGINI BAHOLASH SHAKLLARI VA USULLARI

Haydarov O'ral Axmadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi dotsenti, PhD
uralhajdarov428@gmail.com
+998900353960

Annotatsiya. Jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi sharoitida innovatsiyalarni keng joriy etish va investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich baholashning samarali mexanizmini ishlab chiqish, investitsiya loyihalari hisob-kitoblarining xalqaro standartlarga muvofiqligi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish, qimmatli qog'ozlar jozibadorligining faol investitsiyalarga ta'sirini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, investitsiya loyihalarining samaradorligi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy institutlarni yaratish orqali ta'minlanadi. Shu munosabat bilan korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyati hamda samaradorligini baholash shakllari va usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, globallashuv, investitsiya, innovatsiya, investitsiya loyihalari, samaradorlik, qimmatli qog'ozlar, xalqaro standartlar, samaradorlikni baholash, raqobatbardoshlik

I. KIRISH

Jahon taraqqiyotining zamonaviy bosqichi investitsiya loyihalari sohasida ko'plab imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu munosabat bilan foyda keltiradigan loyihalarni tahlil qilish zarurati paydo bo'lmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari tizimdagi ba'zi muammolarni sanab o'tdi, xusan, so'nggi olti yilda chetdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgani haqida ma'lumot berayotgani, lekin ushbu investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga, qo'shilgan qiymatga, eksportga ta'siri qanday bo'yicha tahlillar etarli emasligi qayd etildi [1].

Investor yoki korxona rahbari investitsiya loyihalarini baholay olishi kerak, bu uning samaradorligida samarali qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Investitsiya xulosalarining samaradorligi asosan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tanlash tizimining sifati, uni kelajakda iqtisodiy faoliyat omillariga moslashishi bilan belgilanadi. Investitsiya loyihasining samaradorligini baholash muammolarini hal qilish yoki hech bo'limganda birinchi daqiqada qisman ko'rsatkichlarning samaradorligini aniqlash uchun turli usullar, modellar, tavsiyalar va yondashuvlar qo'llaniladi. Investitsiya loyihasining asosiy ko'rsatkichi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va investitsiya qilingan kapitaldan maksimal foyda olishdir. Bundan tashqari, korxonalarining asosiy tarmoqlarini texnologik modernizatsiya qilish ham zarur miqdordagi kapitalni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihasining samaradorligi-bu korxonaning hozirgi eng kam xarajatlari bilan eng yaxshi natijalarga erishish darajasi. Tadqiqot

davomida investitsiya loyihalari samaradorligining ko‘plab xalqaro talqinlari ko‘rib chiqiladi, ular bir nechta yondashuv bo‘yicha taqsimlandi.

Xususan, ba‘zi yondashuv vakillari loyihaning samaradorligini natija va xarajatlar nisbati sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuvda samaradorlik jarayonning nisbiy ta‘siri va samaradorligi, shuningdek natijaning xarajatlarga nisbati sifatida taqdim etiladi [2]. Nazariy tavsiyalar investitsiya loyihalarining samaradorligini investitsiya loyihasining investorlar yoki korxona egalarining maqsadlari va manfaatlariga muvofiqligini aks ettiruvchi kategoriya sifatida ko‘rib chiqadi.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash shakllari va usullarini o‘rganishda O.A.Romanova, N.M. Ratner, Yu.V.Bogatin, V.A.Shvandar, A. N. Asaul, B.A.Rayzberg, L.Sh.Lozovskiy, Ye.B.Starodubsevalar ko‘plab izlanishlar olib borganlar.

Xususan, V.M.Galperin, S.M.Ignatev, V.I.Morgunovlarning ta‘kidlashicha, “loyihaning samaradorligi xarajatlar va ularning natijalarini miqdoriy taqqoslash sifatida qaraladi”[3]. Biroq, ushbu ta‘rif samaradorlik tushunchasini ijtimoiy va boshqa samaradorlik turlarini hisobga olmagan holda faqat iqtisodiy nuqtai nazardan izohlaydi.

K.V. Vasilyok esa, “investitsiya loyihasining samaradorligi-bu sarflangan xarajatlarni olingan natijalar bilan to‘g‘ri taqqoslashdir” deya fikr bildirishgan [4].

A. N. Asaul esa samaradorlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tadi. Uning fikricha, “samaradorlik-bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatini, balki tarkibiy va sifat jihatidan progressiv o‘zgarishlarni rag‘batlantirish qobiliyatini aks ettiruvchi qurilish kompaniyasi faoliyati natijalarini qiyosiy baholashdir” [5].

B.A.Rayzberg, L.Sh.Lozovskiy, Ye.B.Starodubsevalarning ta‘kidlashicha, “samaradorlik-bu nisbiy ta‘sir, jarayonning samaradorligi, natijaning uni olishni ta’milagan xarajatlarga nisbatini anglatadi [6].

Mahalliy tadqiqotchilarimizning talqinini tahlil qilishda quyidagilar aniqlandi: “investitsiya loyihasi” iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng qo‘llaniladi va u ikki xil usulda talqin etiladi, masalan: istalgan natijalarini olishda har qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish ish, faoliyat yoki tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda “qtisodiy faoliyat, ish to‘plami, loyiha” atamalari ushbu tushunchalarga huquqiy boshqaruv va moliyaviy hisobot tizimi yoki bunday harakatlar tizimini tavsiflovchi hujjatlar to‘plami sifatida ham tegishli.

Mualliflar A. A. Xashimov, Sh.A.Majidov, N. M. Mo‘minova quyidagi ta‘rifni taklif qildilar: investitsiya loyihasi – bu muayyan harakatlarni amalga oshiradigan, ya‘ni kelajakdagи foyda olish uchun kapital qo‘yilmalarga asoslangan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisobotlar tizimi [7] .

Muallif M. M. Karimovning so‘zlariga ko‘ra, investitsiyalar samaradorligini baholash bo‘yicha ko‘plab ishlar mavjud. Mualliflar tomonidan qo‘llaniladigan usullar har xil, chunki tadqiqotchilar hisob-kitoblarni amalga oshirishda o‘zlariga qo‘ygan maqsadlari ham har xil. Soddalashtirilgan holda, ushbu yondashuvlarning barchasi xarajatlar va natijalar nisbatini baholashga qaratilgan va barcha farqlar investitsiyalar

xarajatlari va natijalari, ularni hisobga olish usullari nimani anglatishini aniqlashda yuzaga keladi. Umuman olganda, investitsiyalar samaradorligini aniqlashga yondashuvlarni investitsiyalarning yakuniy maqsadi yoki ta'siri, ma'lumotlar turi, xarajatlarni aniqlashga yondashuv, iqtisodiy tizim darajasi, vaqt omilini hisobga olish, baholashning yakuniy maqsadi, baholash shakli bo'yicha ajratish mumkin. Investitsiyalarning baholanadigan natijalariga ko'ra quyidagi samaradorlik turlari ajratiladi:

investitsiya faoliyatining bevosita ishtirokchilari uchun moliyaviy oqibatlarini (foyda, daromad, rentabellik) hisobga oladigan moliyaviy samaradorlik; ;

davlat, mintaqaviy yoki mahalliy byudjetlar uchun investitsiya faoliyatining moliyaviy oqibatlarini aks ettiruvchi byudjet samaradorligi;

loyihaning ekologik samaradorligi, ekologik vaziyatni yaxshilash nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatining oqibatlarini aks ettiradi;

investitsiya faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy samaradorlik;

investitsion faoliyatning tabiiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasiga ta'sirini aks ettiruvchi ishlab chiqarish samaradorligi. Masalan, loyihami amalga oshirish uchun ma'lum xarajatlar miqdorida mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, ham jismoniy, ham xarajat jihatidan;

xarajatlarni o'lhashga imkon beradigan natijalar va xarajatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlik. Bunday holda, masalan, investitsiya natijasida mahsulot tannarxining o'sishi ko'rib chiqiladi [8]

Investitsiya loyihamini baholash bo'yicha muhim qarashlar har tomonlama o'rganilib, biz tomonimizdan yuqoridagi xulosalarga assoslangan holda: "investitsiya loyihasining samaradorligi – iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion yo'nalishlar samaradorligi bo'yicha belgilangan maqsadlar yutuqlari majmuidir" deya ta'rif shakllantirildi.

Investitsiya va innovatsion loyihami samaradorligini baholashning o'zaro bo'liqligini o'rganishda investitsiya loyihami samaradorligini baholash masalalari innovatsion loyihami samaradorligidan ko'ra ko'proq ishlab chiqilganligini inkor etib bo'lmaydi. Innovatsion loyihami o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da: samaradorlikni majburiy qiyosiy tahlil qilish, samaradorlikni baholashning ko'p mezonliligi, faqat miqdoriy samaradorlik mezonlaridan foydalanish qiyinligi. Tadqiqot innovatsiyalarning samaradorligini baholash usuli samaradorlikni o'lhash ob'ektiga bo'liqligini tahlil qildi. Samaradorlikni baholash ob'ekti har xil turdag'i innovatsiyalar, yakuniy iste'mol ob'ektlari bo'lishi mumkin; texnologik jarayonlar; ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish usullari; innovatsion loyihaning haqiqiy sifati.

Mualliflarning fikriga ko'ra, tashkilotning innovatsion salohiyatini rivojlantirish faqat uning barcha bo'linmalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun innovatsion potentsialni baholash vositasi sifatida ichki resurslar diagnostikasidan foydalanish tavsiya etiladi: mahsulot-tashkilot faoliyatining yo'nalishi va ularning natijalari mahsulot va xizmatlar shaklida; funktsional-tashkilot xodimlarining mehnat faoliyati jarayonida resurslar va boshqaruvni mahsulot va xizmatlarga aylantirish; tashkiliy-tashkiliy tuzilma, barcha funktsiyalar va loyihami

uchun jarayonlar texnologiyasi, tashkiliy madaniyat; boshqaruv – tashkilotning umumiy rahbariyati, boshqaruv tizimi va uslubi .

Investitsiya va innovatsion loyihalar samaradorligini baholash usullarini taqqoslash o‘rtasidagi xarakterli farqlar baholashning yakuniy natijalarida sezilarli noaniqlikni anglatadi. Innovatsiyalarning samaradorligini baholash natijalarini aniqlaydigan chegirma darajasi minimal qiymatga intilishi mumkin va shu bilan ishlatilgan manbalarning minimal narxini namoyish etadi.

III. NATIJALAR

Investitsion va innovatsion loyihalarning korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy va investitsiya faoliyati samaradorligiga ta‘sirini tahlil qilishda barcha omillar va har bir omilning alohida ta‘siri tufayli korxona samaradorligining umumlashtiruvchi va xususiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi darajasini aniqlash kerak. O‘zgarishlar yuz berganda, korxona samaradorligini oshirish bo‘yicha biznes-rejani bajarmaganlikka ta‘sir ko‘rsatgan sabablarni chuqur tahlil qilish amalga oshiriladi. Investitsiya va innovatsion loyihalarning korxona samaradorligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ta‘sirini tahlil qilish uchun ilmiy-texnik tadbirlarning samaradorligi va korxona faoliyati samaradorligini iqtisodiy mazmuniga bir hil ko‘rsatkichlar yordamida hisoblash kerak.

Xalqaro taqqoslashlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotning innovatsionligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyoning ko‘plab rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlaridan ancha orqada qolmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish uchun rag‘batlar ishlab chiqaruvchini xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun kurashishga majbur qiladigan bozor raqobati tufayli yuzaga keladi. Shunga ko‘ra, bozorda bozor impulslariga moslashuvchan javob bera oladigan va tashkilotning yangi texnologiyalari va usullarini faol ravishda joriy etadigan tadbirkorlar omon qolishmoqda.

Hudular investitsion salohiyatining iqtisodiy-resurs komponenti yuqori bo‘lgan hududlar asosan sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilishda ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgan hududlar hisoblanishi mumkin. Mayjud infratuzilmaning holatini ifodalovchi infratuzilma salohiyati va eksport salohiyati ham investitsion salohiyatning iqtisodiy-resurs komponentiga kiritishimiz mumkin.

Moliyaviy resurs komponentining tarkibidan ma’lumki, byudjet va soliq salohiyati hududdagi milliy daromadni taqsimlanishida markazlashtirilgan fondlarning ulushi yuqori bo‘ladigan hududlarni kiritish mumkin. Tabiiy ravishda, O‘zbekiston hududlari orasida ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha eng etakchi o‘ringa ega bo‘lgan hudud Navoiy viloyati hisoblanadi.

Ijtimoiy-resurs komponent esa asosan investitsion salohiyat va investitsion jalb qiluvchanlikning ijtimoiy jihatlarini o‘z ichiga oluvchi elementlarni mujassamlashtiradi.

Yuqoridagi komponentlar ta‘sirida shakllanadigan investitsion salohiyat, hududlarning investitsion jalb qiluvchanligi va investitsion imidji shakllanishi negizida har bir hududning investitsion raqobatbardoshligini mustahkamlashning moddiy

asosini tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro bo'liqligini quyidagi rasm ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin. Investitsion salohiyat investitsion jalb qiluvchanlik va investitsion imijning moddiy asosini tashkil qiladi. Investitsion imidj bir necha yillar mobaynida shakllanadigan retrospektiv ko'rsatkich bo'lsa-da, investitsion raqobatbardoshlikni bosh indikatorlaridan biri hisoblanadi.

Investitsion jalb qiluvchanlik investitsiyalash jarayonining shunday shart-sharoitini anglatadiki, bunda investitsiya resursiga ega bo'lgan investor investitsiyalashning muqobil variantlari sharoitida nisbiy afzal sifatida investitsion jozibadorligi yuqori bo'lgan loyihani tanlaydi. Bunda investor tomonidan imkoniyatga ega bo'lgan ob'ekt sifatida alohida loyiha, korxona, hudud, mamlakat va boshqalar bo'lishi mumkin.



1-rasm. Hududlar investitsion salohiyati asosiy tarkibiy komponentlari¹⁰⁶

O'zbekiston yoki uning hududlari kesimidagi mavjud investitsion salohiyat istiqboldagi milliy yoki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning moddiy negizini tashkil qiladi. Investitsion salohiyatning miqdoriy va sifat tavsifi moddiy, nomoddiy, intellektual va moliyaviy shakllardagi aktivlar majmuasini o'z ichiga oluvchi investitsiya resurslarining majmuasi hamda ularni realizatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining strategik maqsadlarini realizatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda respublikamizda olib borilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangilash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bo'liq iqtisodiy islohotlar sharoitidagi investitsiya siyosatining istiqboldagi


¹⁰⁶ Muallif ishlanmasi

samarali natijalari ko‘p jihatdan hududlardagi mavjud investitsion salohiyat va uning boshqarish tizimiga bo‘liqdir.

«Salohiyat» iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha talqin qilinishi mumkin: «Bozor sub‘ektlarining u yoki bu faoliyat turi va ishlab chiqarish jarayoni uchun imkoniyatga ega bo‘lishi hamda tayyorligi hisoblanib, qaysiki, bular bo‘yicha doimo absolyut va nisbiy afzallikka ega bo‘lishidir». [9]

Rossiyalik iqtisodchi V.M.Shimova investitsiyalar va investitsion salohiyati tushunchalarining dialektik o‘zaro bo‘liqligiga to‘xtalib, “Uzluksiz ijtimoiy takror ishlab chiqarishning intensiv ravishda tashkil qilishni ajralmas elementi hisoblanuvchi investitsiya salohiyatidan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish avvalo, kutiladigan naflilik, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy naflilik natijalariga ega bo‘lgan ilmiy-innovatsion moliyaviy baza sifatida sifat jihatdan yangi asosiy ishlab chiqarish fondlarini yaratish hisoblanadi [10].

Demak, “Salohiyat”, “Investitsiya”, “Investitsion faoliyat” tushunchalari bo‘yicha fikrlarni umumlashtirish va ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, investitsion salohiyat iqtisodiy agentlar tomonidan (davlat, hudud, xo‘jalik sub‘ektlari) ijtimoiy va iqtisodiy naflilikni o‘zida mujassamlashtirgan foyda hamda ijtimoiy samara olish maqsadida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni qo‘yilma qilish uchun ularda mavjud resurslar, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga mavjud iqtisodiy salohiyatni to‘plash imkoniyati hisoblanadi. Agar ushbu ta’rifga asoslangan holda, hududlar investitsion salohiyatini tizimlashtiradigan bo‘lsak, hududlardagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-innovatsion faoliyat turlariga kiritiladigan investitsiyalar uchun ularda mavjud resurslar, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni to‘plash imkoniyati hisoblanadi.



2-rasm. Investitsion salohiyat va uni aniqlovchi ko‘rsatkichlar¹⁰⁷

Investitsion jalb qiluvchanlik investitsiyalash jarayonining shunday shart-sharoitini anglatadiki, bunda investitsiya resursiga ega bo‘lgan investor investitsiyalashning muqobil variantlari sharoitida nisbiy afzal sifatida investitsion

¹⁰⁷ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

jozibadorligi yuqori bo‘lgan loyihani tanlaydi. Bunda investor tomonidan imkoniyatga ega bo‘lgan ob‘ekt sifatida alohida loyiha, korxona, hudud, mamlakat va boshqalar bo‘lishi mumkin. Investitsion faollik investitsion jalg qiluvchanlik va investitsion salohiyatning ichki konstruktiv tuzilishiga bo‘liq bo‘lib, uning funksional bo‘liqligini quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin. Investitsiyalash jarayonini yahlit mamlakat va alohida korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini modernizatsiyalash va texnologik yangilash tizimining moddiy asosini va xarakatga keltiruvchi kuchi sifatida ko‘rilib, pirovard natijada ularda shakllantirilgan investitsion salohiyatni boshqarish tobora dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

1-jadval

Mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori¹⁰⁸, *mldr. so‘mda*

Hududlar	Yillar					2023 yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarishi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
O‘zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	160144,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	4208,6
Andijon viloyati	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	11187
Buxoro viloyati	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	20663,9
Jizzax viloyati	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	7070
Qashqadaryo viloyati	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	-3324,5
Navoiy viloyati	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	8752,3
Samarqand viloyati	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	15450,4
Surxondaryo viloyati	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	6472,6
Sirdaryo viloyati	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	10002,7
Toshkent viloyati	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	27355,4
Farg‘ona viloyati	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	11269,6
Xorazm viloyati	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	6634,1
Toshkent shahri	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	28685,6


Yillar kesimi bo‘yicha hududlarga (viloyatlar) yo‘naltirilgan investitsiyalarning taqsimoti notekis bo‘lgan. 2019 yilda hududlar iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning qiymati hamda ularning ulushiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘rtacha respublika ko‘rsatkichidan Toshkent shahri, Qashqadaryo, Toshkent hamda Toshkent viloyatlarining ulushi yuqori bo‘lgani holda, qolgan barcha hududlarning ulushi o‘rtachadan past bo‘lgan. Eng past ko‘rsatkich Xorazm viloyatiga to‘g‘rikeladi.

Milliy iqtisodiyotimizni transformatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan milliy dasturlar tufayli 2023 yilda Toshkent shahrining umumrespublika ko‘rsatkichidagi ulushi 6 foizlik punktga ko‘tarilgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Farg‘ona viloyatlarida pasayish kuzatilgan (2.3-jadval). Qashqadaryo viloyatida esa 3324,5 mldr. so‘mga kamaygan.

¹⁰⁸ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Respublikamiz bo'yicha umumiy investitsiyalar 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 160144,1 mlrd. so'mga oshganligi so'nggi yillarda mamlakatimizda investitsiya faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda investitsiya faolligini oshirishga yaratilgan shart-sharoitlar evaziga 2023 yilda 2019 yilga nisbatan chet el investitsiyalari hamda kreditlari 13,1 foizga oshgan.



3-rasm. Mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari hamda kreditlarining ulushi¹⁰⁹, foizda

Bu jarayonda asosiy ulushni Sirdaryo viloyati 36,6 foiz, Navoiy viloyati 26,8 foiz, andijon viloyati 24,3 foizga o'sishi ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida esa chet el investitsiyalari hamda kreditlari 12,3 foizga Surxondaryo viloyatida esa 0,3 foizga kamayganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Hududiy investitsion faollik turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar determinantlari orqali shakllanadigan investitsion salohiyatning integral ko'rsatkichlariga asoslanishi tabiiy holat hisoblanadi. Bu o'z navbatida, davlat investitsion siyosatining strategik yo'nalishini belgilashda hududlarning mavjud investitsion salohiyati komponentlariga asoslangan holda investitsiyalarni taqsimlash orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Hududiy investitsion faollikni oshirishda avvalo ichki investitsiya resurslarni maksimal darajada mobilizatsiya qilish va tashqi investitsiyalarga mavjud ehtiyojdan oqilona foydalanishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Hududlardagi investitsion faollik va investitsion salohiyatdan oqilona foydalanish darajasi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shakllantirilgan qulay investitsion muhit bilan bo'liq mezo omillarga bo'liq bo'lib, ushbu omillar ta'sirida jalb qilinadigan investtsiyalarning manbalari yuqorida tilga olingan korporativ moliyalashtirish

¹⁰⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

manbalari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga bo‘liqdir. Ushbu omillar kesimidagi investitsion faollik hududlarda yaratilgan real shart sharoitlarga asoslangan holdagi avtomatik tarzda investitsiyalar oqimini yuzaga keltiradi. Lekin, o‘tish davrini boshdan kechirayotgan yoki ma‘lum darajada hududlardagi investitsiyalarni jalb qilishdagi zaif raqobatbardoshlik sharoitlarida hududlar rivojlanishiga investitsiyalarni jalb qilishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimiga ehtiyoj vujudga keladi.

IV XULOSALAR

Kreditlar, grantlar, kredit liniyalari va loyihalarni moliyalashtirishning boshqa shakllaridan foydalangan holda investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirishning ijobjiy natijalari umumlashtirildi, shuningdek innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalangan holda qo’shimcha moliyalashtirish manbalari asosida davlat kafolatlarini taqdim etdi.

Korxonada ishlab chiqarilgan yoki etkazib beriladigan ma‘lum miqdordagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste‘mol qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan davlat tomonidan kafolatlangan davlat-xususiy sheriklik usulidan foydalanish zarur.

Korxona ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion loyihalarni maqsadli moliyalashtirish hisobiga investitsiyalar samaradorligini baholash hisobiga innovatsion-investitsiya ko‘rsatkichlarining jadal o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Investitsion salohiyat mavjud barcha ob‘ektiv ko‘rsatkichlarning va investitsiyalarni amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarning kombinatsiyasini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday shart-sharoitlar investitsion faoliyat uchun potensial ob‘ektlar va investitsiyalashning turli tuman sohalarini mavjudligiga, shuningdek, aholi ijtimoiy qatlamining iqtisodiy tafakkur va moliyaviy savodxonligiga hamda atrof-muhit barqarorligiga bo‘liqdir.

Mamlakatning investitsion salohiyati bu milliy iqtisodiyot tarmoqlar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini ifodalovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, investitsion salohiyat iqtisodiy agentlar tomonidan (davlat, hudud, xo‘jalik sub‘ektlari) ijtimoiy va iqtisodiy naflilikni o‘zida mujassamlashtirgan foyda hamda ijtimoiy samara olish maqsadida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni qo‘yilma qilish uchun ularda mavjud resurslar, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga mavjud iqtisodiy salohiyatni to‘plash imkoniyati hisoblanadi.

Korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlanirish sharoitida investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirish uchun tavakkalchilikka yo‘naltirilgan loyihalarda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish investorlar uchun ham, mulkdorlar uchun ham samarali investitsiya loyihasini tanlash bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston uchun bosqichma-bosqich baholash va samaradorlik, investitsiya va innovatsion loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha milliy standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir, bu nafaqat zarur bo‘lganda, balki investitsiya yoki

innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ham vaqtı-vaqtı bilan amalga oshirilishi kerak.

Hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarmoq tarkibida sanoat tarmog‘ining ulushi yuqori bo‘lmoqda. Demak, asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashdagi samaradorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning hissasi yuqori bo‘lganligi bo‘yicha xulosa qilish mumkin. Ushbu holat milliy iqtisodiyot va hududlar raqobatbardoshligi uchun qulay shart-sharoit yaratса-da, investitsiyalarni jalb qilishdagi bir tomonlama rivojlanish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun o‘rtta istiqbolga mo‘ljallangan asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilishda hududlardagi mavjud investitsion salohiyatiga tayanish hududiy iqtisodiy rivojlanishni real imkoniyatlarga mutanosibligini ta‘minlaydi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Investitsiya va mahalliy sanoatda 2024 yilda turgan vazifalar bo‘yicha yig‘ilishi. <https://kun.uz/news/2024/01/18/shavkat-mirziyoyev-investitsiya-tizimidagi-muammolarni-sanab-otdi>
2. Novoskolseva Yu.Yu., Shemetova N.K. Metodicheskie aspekty kompleksnoy otsenki effektivnosti investitsionnykh proektor. – M.: UDK 330.322 BBK 65.263-24, 2016. – 273-278 c.
3. Galperin V. M., Ignatev S. M., Morgunov V. I. Mikroekonomika. V 2-x tomakh. Institut «Ekonomicheskaya shkola». – Sankt-Peterburg, 2004. – 349 c.
4. Vasilyok K.V. Effektivnost investitsionnogo proekta: ponyatie, vidы, prinsipy otsenki. Osnova: Metodicheskie rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionnykh proektor (vtoroe izdanie). – M.: 21.06.1999. – 417 c.
5. Asaul, A. N. Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti. – SPb: Piter, 2005. – 368 s.
6. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh, Starodubseva Ye.B. Sovremennoy ekonomicheskiy slovar. – 4-ye izd., pererab. i dop. - M.:INFRA-M, 2004. - 479 s.
7. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2014. – 248 b.
8. Karimov M.M. Effektivnost investitsiy v razvitiy promyshlennosti Uzbekistana. Ekonomicheskiy analiz: teoriya i praktika – M.:2016. – 140-152 b.
9. Kotayubov V.Yu. Investitsionnyy potensial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskiy i finansovo-kreditnyy aspekty. - M.: MGIMO-Universitet, 2004. – S.82.
10. Shimova V.N. Natsionalnaya ekonomika Belarusi: Potensialы. Xozyaystvennye kompleksy. Napravleniya razvitiya. Mexanizmy upravleniya. Uch.pos. – Minsk: BGEU, 2010. – 431 s.